

**AHOLI ZICH JOYLASHGAN SHAHARLARDA YO'LOVCHI
TASHISH TIZIMI VA ULARDAGI YO'LOVCHI TASHISH
TIZIMDAGI KAMCHILIKLAR**

Halimov Javohir Abdusamat o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti

“Transport vositalari muhandisligi” kafedrası

stajyor o'qituvchisi

E.mail: javohirhalimov97@gmail.com

Tel: + 998972724646

Mashrabov Islomjon Ikromjon o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Avtomobil servisi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Payzillayev Dilshod Lutfulla o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Avtomobil servisi yo'nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: *O'zbekiston Respublikasining “Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida”gi qonuni, davlatimiz rahbarining yo'lovchi transportini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirishga oid farmon va qarorlari bunda muhim dasturi amal bo'lmoqda.*

Biroq sohada o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar ham yo'q emas. Ayrim obektlar yo'nalish jadvallari va sxemasi, yo'lovchilar va haydovchilarga zarur ma'lumotlarni yetkazish uchun ko'rgazmali stendlar bilan jihozlanmagan, bekatlarda yo'nalishlarning nomi, tartib raqami va harakatning oraliq vaqti to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan. Ba'zi bekatlar soyabon, o'rindiqlik, maxsus yuk ilgichlar yoki tungi yoritish moslamalari bilan to'la jihozlanmagan.

Kalit so'zlar: *Aholi, transport, yuk avtomobillari, yengil avtomobillar*

O'zbekiston Respublikasining "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida"gi qonuni, davlatimiz rahbarining yo'lovchi transportini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirishga oid farmon va qarorlari bunda muhim dasturi amal bo'lmoqda.

Biroq sohada o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar ham yo'q emas. Ayrim obektlar yo'nalish jadvallari va sxemasi, yo'lovchilar va haydovchilarga zarur ma'lumotlarni yetkazish uchun ko'rgazmali stendlar bilan jihozlanmagan, bekatlarda yo'nalishlarning nomi, tartib raqami va harakatning oraliq vaqti to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan. Ba'zi bekatlar soyabon, o'rindiqliq, maxsus yuk ilgichlar yoki tungi yoritish moslamalari bilan to'la jihozlanmagan[1].

Transport turlaridan qat'iy nazar yo'lovchilar tashishni tashkil etishda ularga bir xil talablar qo'yilgan bo'lib, unda yo'lovchilarni qisqa vaqt ichida manzillariga yetkazib qo'yish, transport vositalarining butun marshrut davomida aniq harakati, transport vositalaridan yaxshi foydalanish, to'la xavfsizlik bilan tashishni tashkil etish, yo'lovchilarga yuqori madaniyat bilan xizmat etish, iloji boricha harajatlarni tejimli sarflash talablari qo'yiladi.

Yo'lovchilarni ko'plab tashuvchi transportning boshqa turlariga nisbatan yo'lovchilar tashuvchi avtomobil transportining bir qancha afzalliklari bor. Bunday afzalliklarga eng avvalo, yo'lovchilar tashuvchi avtomobil transportining yuqori darajali manevrchanligi, ya'ni yo'lovchilarni ish va yashash joylariga yaqinlashtirib yetkazib borish xususiyati, takomillashtirilgan va qattiq qoplamali yo'llarda yer usti yo'lovchilar tashuvchi boshqa transportlarga nisbatan yuqori harakat tezligiyu, zarur bo'lganda shahar ichi marshrutlarning bir qismini dam olish (shanba va yakshanba) kunlari shahar atrofi xordiq chiqarish joylariga boruvchi, shahardan tashqarilarini esa uning aksi, kerak bo'lganda shahar ichi va shahar atrofi marshrutlaridagi bir qism avtobuslarni ekspress harakatiga o'tkaza olinishi[2].

Andijon viloyat maydoni bo'yicha Farg'ona viloyatidan 1,5 marta Buxoro viloyatidan 9,4 marta, Navoiy viloyatidan 25,8 marta kichik bo'lib, respublika

hududida maydon jihatidan eng kichik viloyat hisoblanadi. Yana shuni aytish kerakki, viloyat hududi Farg‘ona vodiysidan o‘tgan va kesishgan magistral yo‘llar ustida joylashgandir. Viloyat hududidan Qirg‘iziston va boshqa tomonlarga boradigan yo‘llar o‘tgan. Andijon viloyati respublika hududida kichik maydonni egallashiga qaramay, respublikaning 9 % ortiq aholisi yashaydi. Yana shuni aytish o‘rinliki, Andijon viloyati aholisining zichligi bo‘yicha nafaqat respublikada, balki MDH bo‘yicha eng zich viloyat bo‘lib, 1 km.kv. ga 1.01.2024 yilgi ma‘lumotga ko‘ra 698 kishi to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham aholisi zich joylashgan hudud toifasiga kiradi.

Yirik shaharlarda transportni rivojlantirish strategiyasi jamoat avtomobil transportining shaxsiy avtomobil transportiga nisbatan imtiyozini ta‘minlashga va shaharda avtomobil transportidan foydalanishni kamaytirishga qaratilgan[3].

Andijon shahri ko‘chalari shahar arxitekturasidan kelib chiqib, asosan radial ko‘rinishda joylashgan. Bungi kunda shahar ko‘chalarida yo‘l harakatini tashkil etish ilmiy-Diplom loyihasi natijalari asosida zamonaviy tashkiliy-texnik vositalar yordamida tashkil etilgan. Andijon shahridagi hozirgi transport va infratransport o‘zgarishlarini e‘tiborga olib, yo‘l harakatini tashkil etishdagi quyidagi takliflar to‘g‘risida aytib o‘tishimiz mumkin:

- shahar hududini ayrim hududlarga ajratib chiqish;
- aholi zich yashash hududlari (bu hudud ichida avtomobil harakati uchun ma‘lum cheklovlarning o‘rnatilishi lozim)ga ajratib chiqish mumkin. Masalan, Parijda “Avtomobilsiz markaz” dasturi joriy qilingan[4];
- shaxsiy avtomobillarda shahar markaziga kirish uchun to‘lov tizimini joriy etish. Kirish masofasining shahar markazida turish joy masofasiga bog‘liq ravishda shaharga kirish uchun belgilangan miqdorda to‘lovlarni amalga oshirish yoki avtomobillarni to‘xtab turish joyida qoldirish (parkovka qilish) kabi tadbirlar xorij tajribasida amalga oshirilgan. Lekin mazkur tadbirlar bir qancha muammolarni ham yuzaga keltirib chiqaradi[5]. Masalan, shaharga kirish hududlarida keng avtomobil to‘xtab turish joylarini tashkil etish, shahar jamoat

transportiga o'tib o'tirish uchun marshrutlarni qayta ko'rib chiqish, barchasi uchun to'lov tizimini ishlab chiqish va h.k.;

– shahar jamoat yo'lovchi transportini rivojlantirish. Shahar jamoat yo'lovchi transporti harakatini xavfsiz tashkil etish usullarini joriy etish. Masalan, shahar jamoat yo'lovchi transporti harakati uchun alohida harakatlanish yo'lakchasini tashkil etish. Bunday tajribani London, Berlin, Los-Anjelos, Sofiya va Moskva shahar ko'chalarida amalga oshirilganini aytib o'tish joiz;

– shahar ko'chalarini takomillashtirish. Yuqori transport zichligiga ega bo'lgan shahar ko'chalarida tezlik yuqori bo'lgan magistrallarni tashkil etish. Lekin bunday shahar ko'chalarini tashkil qilish juda katta ilmiy-loyihaviy ishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi[6];

– yo'l-transport harakati ishtirokchilarini yo'l-transport holatlari to'g'risida axborotlar bilan ta'minlash. Bunday axborot ma'lumotlari avtomobil yo'lining holati, undagi transport vositalarining zichlik holati (tirbandlik), shahar jamoat transporti marshrutlari to'g'risidagi ma'lumotlar va h.k.larni o'z ichiga olishi mumkin. Keltirib o'tilgan axborot ma'lumotlarini uzatish va undan foydalanish bo'yicha qator innovatsiyalar ishlab chiqilgan va joriy etilgan[7].

Harakat xavfsizligini ta'minlash keng qamrovli tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etar ekan, yuqorida shaharlarda yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha qayd etilgan takliflar Andijon shahridagi muammolarning yechimiga ham hissa qo'shadi, deb umid qilamiz [8]. Shahar jamoat yo'lovchi tashish transporti shahar hayotini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Boshqa mulkchilik shaklidagi transport tashuvchilar bilan taqqoslaganda:

- Bu avtobus yo'nalishlari mavjud yo'lovchilar oqimiga mos kelivchi marshrutlar;
- malakali mutaxassislar;
- yo'l harakati xavfsizligi talablarini ta'minlash;
- tasdiqlangan jadval jadvalini taqdim etish va shu asosida yurish[9].

Shahar avtomobil yo'lovchi tashish transportining ahamiyatiga qaramay, muammolar mavjud, xususan harakatlanuvchi tarkibning keskin yomonlashishi

va yangilanishning etarli emasligi, bu esa yo'lovchi tashish xavfsizligini va texnik darajasini pasaytirish va ishonchlilikni kamaytirishga olib keladi. Texnik nosozlik tufayli avtobus tarmog'idan chiqadigan avtobuslar soni ko'paymoqda va bu o'z navbatida foydalanish xarajatlarini ham, transport xarajatlarini ham oshiradi. Katta muammo, shuningdek, xarajatlar va tariflarning past darajadagi subsidiyalar bilan muvofiqligi, korxonaning zararlanishiga olib keladigan kreditorlik qarzlariga to'g'ri keladi[10].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamat Y., Nigora A., Javohir X. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ INCREASING ASSESSMENT CRITERIA OF THE STUDENT KNOWLEDGE OBJECTIVELY WITH SCIENTIFIC RESEARCH //Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по естественным наукам. Подробнее на [www. t](http://www.t). – Т. 2. – С. 118.
2. Юлдашев А. Avtomobillarning erkin va majburiy tebranishlar sinovi apparati (tm 155) yordamida tahlil qilish //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
3. Yuldashev A., Abdumuminova N., Xalimov J. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ //Точная наука. – 2018. – №. 26. – С. 113-115.
4. Abdusamat o'g'li H. J. STUDY THE THEORETICAL BASIS OF ANY CHANGES THAT CAN OCCUR IN THE FREE AND FORCED VIBRATION OF AUTOMOTIVE PARTS MATERIALS //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 108-111.
5. Abdusamat o'g'li H. J. MASHINA SOZLIKDA ISHLATILADIGAN PLASTIK MATERIALLARNI CHO 'ZILISHI VA SIQLISHI NAZARIY ASOSLARINI O 'RGANISH VA BAHOLASH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 110-114.
6. Yuldashev A., Abdumuminova N., Xalimov J. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ //Точная наука. – 2018. – №. 26. – С. 113-115.

7. Xalimjonov, E. "Motor moylari, xossalari va ularda bo'ladigan'ozgarishlarni aniqlash." *Актуальные вопросы высшего образования–2023.–2023.*
8. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 471. – С. 06015.
9. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – T. 1. – №. 14. – С. 10-14.
10. Xalilbek o'g'li X. E. SPARK AVTOMOBILI DVIGATELINING KONSTRUKSIYASI TAHLILI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – T. 19. – №. 4. – С. 3-6.